


Qoraqalpog`iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

Yanvar-dekabr 2018 yil

2018 yil yanvar-dekabrida 2177 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,4% ga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (23,0 %), savdo sohasida (20,6 %), qurilish tarmog'ida (19,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (15,8%), yashash va ovqatlanishda (6,6 %), tashish va saqlashda (3,8 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'Ichov birligi	2017 y.	2018 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	10539	11985	1446
Yangi tashkil etilgan kichik korhona va mikrofirmalar	birlik	1648	2177	529
YaHM	%	55,8	54,3	-1,5
Sanoat	%	20,2	18,7	-1,5
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,0	99,1	1,1
Investitsiya	%	29,8	21,7	-8,1
Qurilish	%	77,4	84,6	7,2
Savdo	%	91,4	82,9	-8,5
Xizmatlar	%	60,8	57,5	-3,3
Yuk tashish	%	85,3	90,3	5,0
Yuk aylanmasi	%	86,7	90,3	3,6
Yo'lovchi tashish	%	95,8	96,1	0,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,0	97,1	0,1
Eksport	%	8,6	9,8	1,3
Import	%	49,0	60,3	11,3


**Tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1648	2177
Amudaryo	155	155
Beruniy	74	126
Qorauzak	56	68
Kegeyli	34	50
Qungirot	102	126
Qonlikul	31	44
Muynoq	71	73
Nukus	117	121
Taxiatosh	26	95
Taxtakupir	35	32
Turtkul	109	191
Xujayli	74	104
Chimboy	62	70
Shumanay	58	55
Ellikqala	72	115
Nukus shahri	572	752

2018 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar tumanlar bo'yicha eng ko'p Nukus shahrida - 752 ta, Turtkul tumanida - 191 ta, Amudarya tumanida - 155 ta. Beruniy va Qungirot tumanlarida - 126 ta, Nukus tumanida - 121 ta, Ellikqala tumanida - 115 ta. Qorauzak, Kegeyli, Qonlikul, Muynoq, Taxiatosh, Xujayli, Chimboy va Shumanay tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 104-50 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Taxtakupir tumanida –32 tani tashkil etgan.

**2018 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar
bo'yicha ulushi**



2018 yil yanvar-dekabr holatiga tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Nukus sh.ga - 34,5 %, Turkul tumani - 8,8 %, Amudaryo tumani - 7,1 %, Qungirot tumani - 5,8 %, Beruniy tumani - 5,8 %, Nukus tumani 5,6 %, Ellikqala tumani - 5,3 %, Xujayli tumani - 4,8 %, Taxiatosh tumani - 4,4 %, Muynoq tumani - 3,4 %, Chimboy tumani - 3,2 %, Qorauzak tumani - 3,1 %, eng past ko'r-satkich Taxtakupir tumanida - 1,5 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-dekabr 2017 y.	yanvar-dekabr 2018 y.
Jami	1648	2177
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	376	345
Sanoat	369	501
Qurilish	194	420
Savdo	308	450
Tashish va saqlash	64	84
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	132	145
Axborot va aloqa	36	23
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	44	52
Boshqa turdag'i xizmatlar	126	157

2018 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p sanoatda 501 ta, shuningdek :

Sanoatda - 501 ta.;


Savdoda - 450 ta.;

Qurilishda - 420 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 345 ta.;

Xizmatda - 461 ta ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar Sanoatda – 501 ta, savdoda - 450 ta, Qurilishda - 420 ta, Qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida - 345 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 145 ta, Tashish va saqlashda - 84 ta, Axborot va aloqada - 23 ta, Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 52 ta va Boshqa turdag'i xizmatlarda - 157 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar-dekabr 2018 y.	yanvar-dekabr 2017 y.	farq (+-)
Nukus shahri	752	572	150
Turtkul	191	109	82
Taxiatosh	95	25	69
Beruniy	126	74	52
Ellikqala	115	72	43
Xujayli	104	74	30
Qungirot	126	102	24
Kegeyli	50	34	16
Qonlikul	44	31	13
Qorauzak	68	56	12


2018 yil yanvar-dekabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Nukus shahrida – 150 ta., Turtkul tumanida - 82 ta., Taxiatosh tumanida – 69 ta. Beruniy tumanida bu ko'rsatkich 52 ta ni tashkil etdi., Ellikqala tumanida - 43 ta., Xujayli tumanida - 30 ta. Qungirot va Kegayli tumanlarida bu ko'rsatkich 24 -16 ta ni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni(har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Nukus shahrida 13,2 birlikda, Nukus tumanida 10,8 birlikda, Qorauzak tumanida 6,4 birlikda, Turtkul tumanida 6,0 birlikda, Muynoq tumanida 5,9 birlikda va Beruniy tumanida 5,4 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 5,3-3,4 birlik oralig'ida Amudaryo, Kegeyli, Qungirat, Taxiatosh, Taxtakupir,Xujayli va Shumanay, Ellikqala tumanlarida aniqlandi. Chimboy tumanida 3,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda

2018 yilning yanvar-dekabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 5,7 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 6,4 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 0,7 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.




Quyida, 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 18,7 %, qurilishda - 84,6 %, investitsiyada - 21,7 %, savdoda - 82,9 %, eksportda - 9,8 %, importda - 60,3 % va xizmatlar sohasidagi - 57,5 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 54,3 %ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-dekabrida 55,8 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-dekabr holatiga, %



Kichik tadbirkorlikninig ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning
tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Qoraqalpog`iston Respublikasi	18,7	84,6	57,5	21,7
Amudaryo	46,1	94,3	96,0	41,8
Beruniy	51,0	99,6	96,9	41,6
Qorauzak	99,9	100,0	98,2	71,4
Kegeyli	38,7	71,0	97,2	67,7
Qungirot	73,3	36,5	23,3	7,2
Qonlikul	31,4	64,8	97,7	56,1
Muynoq	10,0	100,0	97,5	3,0
Nukus	99,9	100,0	97,6	50,6
Taxiatosh	8,2	-	83,3	1,5
Taxtakupir	99,9	100,0	97,4	56,9
Turtkul	63,7	100,0	93,3	27,0
Xujayli	50,7	89,6	74,4	44,3
Chimboy	91,9	100,0	93,6	50,0
Shumanay	100,0	100,0	98,3	65,1
Ellikqala	81,8	92,3	95,0	64,8
Nukus shahri	7,0	98,0	48,4	44,7

Tumanlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Shumanay tumani (100,0%), Qorauzak, Nukus va Taxtakupir tumanlari (99,9 %), Chimboy (91,9 %) va Qungirot (73,3 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Qorauzak, Muynoq, Nukus, Taxtakupir, Turtkul, Chimboy va Shumanay (100,0%), Beruniy (99,6 %), Nukus shaxri (98,0%), Amudaryo (94,3 %) va Xujayli (89,6 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Shumanay (98,3 %), Qorauzak (98,2 %), Qonlikul (97,7 %), Nukus (97,6%), Muynoq (97,5 %), Taxtakupir (97,4 %) va Beruniy (96,9 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Qorauzak (71,4 %), Kegeyli (67,7 %), Shumanay (65,1 %) va Ellikqala (64,8 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–dekabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan–sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1971,9 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 18,7 %) yoki 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 119,0 % ni tashkil qildi;



– 1312,9 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 21,7 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 116,6%ni tashkil qildi;



– 1549,7 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 84,6 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 111,4 % ni tashkil qildi;



– 2565,2 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 57,5 %), 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 106,8 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 82,9 % yoki 3678,8 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 3,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;



– 45,0 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 9,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 5,0 mln. AQSh dollariga yoki 112,5 % ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,4 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 90,3 %i) ko`payishi ta`minlandi;



– yo`lovchi aylanmasining esa 3,0 % ga (umumiyo`lovchi aylanmasining 97,1 %) ko`payishi ta`minlandi;




Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmatlarning, jami eksport hajmidagi ulushi, %)



2018 yil yanvar-dekabr holatiga tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Nukus, Qorauzak, Muynoq, Beruniy, Qungirot, Ellikqala, Shumanay, Taxtakupir va Chimboy tumanlarida –100,0 %, Xujayli tumani –99,9 %, Qonlikul tumani - 97,7 %, Taxiatosh tumani - 96,9 % , Turtkul tumani - 96,1, Kegeyli tumani - 76,2 %, Amudaryo tumani - 33,4 eng past ko'rsatkichni Nukus shahrida - 0,0 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-dekabrda tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Nukus shahri (533,8 mln.so'm), Xujayli (173,1 mln.so'm), Qo'nigirot (160,3 mln.so'm), va Ellikqala (142,5 mln.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Taxtakupir (25,9 mln.so'm), Muynoq (27,1 mln.so'm) va Shumanay tumanlarida (36,7 mln.so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning tumanlar bo'yicha ulushi, %



Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Shumanay (100,0%), Taxtakupir (99,9%), Qorauzak (99,9%), Nukus (99,9%), Chimboy (91,9%), Ellikqala (81,8%), Kegeyli (73,3%), Qungirot (73,3%), Turkul (63,7%) va Beruniy (51,0%) tumanlarida. Taxiatosh (8,2%) va Nukus shahrida (7,0%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2018 yil yanvar-dekabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Tumanlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (1870,0 mlrd.so'm), Beruniy (404,1 mlrd.so'm), Xujayli (371,9 mlrd.so'm), Turtkul (328,9 mlrd.so'm), va Amudaryo (263,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2018 yil yanvar-dekabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati



Tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Nukus shahri (6308,6 mlrd.so'm), Turtkul (132,3 mlrd.so'm), Qungiroq (113,0 mlrd.so'm), Amudaryo (101,3 mlrd.so'm) va Ellikqala tumanlarida qayd etildi.




2018 yil yanvar- dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Tumanlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Nukus shahri (1187,4 mlrd.so'm), Turtkul (181,2 mlrd.so'm) va Beruniy (164,5 mlrd.so'm), Qungirot (160,1 mlrd.so'm) va Xujayli (159,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil IV - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 61 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 13 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 21,3 %), qurilish - 11 (18,0 %), savdo - 14 (23,0 %), xizmatlar sohasi - 12 (19,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 11 (18,0 %) tashkil etdi.

**2018 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**



Tumanlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Nukus shahrida - 19,7 %, Nukus tumanida - 11,5 %, Taxiatosh tumanida - 9,8 %, Amudaryo, Beruniy va Ellikqala tumanlarida - 8,2 %, Kegeyli, Qungirot, Qonlikul, Xujayli va Chimboy tumanlarida - 4,9 %. Qorauzak va Turtkul tumanlarining ulushi - 3,3 %ni tashkil qildi.


2018 yil 4-chorak bo`yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining tumanlar bo`yicha taqsimlanishi, %



Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 46,2 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 46,2 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 35,7 % va 64,3 %, xizmatlar sohasida – 25,0 % va 75,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 18,2 % va 81,8 %, qurilish – 27,3 % va 72,7 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 7,7 ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 69,2 % sanoat korxonalari, 50,0 % – xizmatlar, 45,5 % – qurilish, 42,9 % – savdo va 27,3 % – qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: R.Sharibaev

Tel.: (861) 222-18-01, (0371)230-82-07,